www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

O‘ZBEKISTONDA BOKS SPORTINING RIVOJLANISH TARIXI

Xodjayev Ravshan Ilxanovich
Buxro davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boks sport turi, uning o‘ziga xos xususiyattlari, boksning qadimiy davlatlarda rivojlanish tarixi, O`zbekistonda sport, xususan boks sportiga bo`lgan e`tibor, uni ommalashtirish holati, O‘zbekiston bokschilarining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari, boks sport ustalari, boks musobaqalarida erishilgan yutuqlar, yetakchi murabbiylar, sportchilar va olimlarimiz tomonidan to’plangan tajribalarning keng tarqalishi respublikamizdagi mutaxassislar malakasining oshishga, o’quv mashg’ulot jarayoni sifatining takomillashuviga yordam berish imkoniyatlari haqida so`z yuritiladi

Kalit so`zlar: ilk davrlar, boks federatsiyasi, Spartakiadasi chempioni, Andijon boks maktabi, xalqaro musobaqalar, xalqaro turnir

Аннотация. В данной статье рассматривается вид спорта бокс, его особенности, история развития бокса в древних государствах, внимание к спорту в Узбекистане, в частности к боксу, состояние его популяризации, успехи узбекских боксеров на международных соревнованиях, достижения мастеров спорта по боксу, боксерские достижения, широкое распространение опыта, накопленного ведущими тренерами, спортсменами и учеными., говорится о возможностях содействия повышению качества учебного процесса

Ключевые слова: ранние периоды, Федерация бокса, чемпион Спартакиады, Андижанская школа бокса, международные соревнования, международный турнир

Annotation. This article will talk about the sport of boxing, its peculiarities, the history of the development of boxing in ancient states, sports in Uzbekistan, in particular, the state of its popularization, the success of Uzbek boxers in international competitions, the achievements of boxing Masters, boxing competitions, the wide distribution of experience accumulated by our leading coaches, athletes and scientists about the possibilities of

Keywords: early times, Boxing Federation, Spartakiadasi champion, Andijan boxing school, international competitions, international tournament

KIRISH:O’zbekistonda boks sport turning rivojlanishi o’tgan bosqichida mashg’ulot jarayoni to’g’risidagi ob’ektiv ma`lumotlarni izlab topish va ilmiy tahlil qilish, ularni nazariy umumlashtirish amalga oshirildi.

O’zbek bokschilarining yutuqlari hammaga ma`lum. O’zbekiston terma jamoasi sportchilari so’nggi yigirma yil ichida jahon chempionatlari va Olimpiya o’yinlarida katta yutuqlarga erishildi. Mamlakatimizda boks jadal rivojlanib bormoqda, sportchilar mahorati oshmoqda, bolalar-o’smirlar sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari tarmoqlari kengaymoqda,olimpiya tayyorgarlik markazlari tashkil etilmoqda.

ASOSIY QISM

Boksni hamma davrlar sporti, deb atashadi. Uning rivojlanish tarixi besh ming yildan ziyod davrga teng. Qo‘l jangi sport yakkakurashi sifatida jamiyat rivojlanishining ilk davrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, ko‘pgina xalqlar o‘rtasida turli xil ko‘rinishlarda tarqalgan edi. Aljir janubida topilgan qoya toshlardagi rasmlar Afrika xalqlarida boks mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida guvohlik beradi

Fir’avnlar sag‘analari devorlarida aks ettirilgan qo‘l jangi lavhalari shuni tasdiqlaydiki, ushbu yakkakurash turi qadimgi Misrda ham mavjud bo‘lgan. Bizgacha Krit-Miken madaniyati davrining qo‘l jangi tasvirlari yetib kelgan. Qo‘l jangi ayniqsa Qadimiy Gretsiyada (Yunonistonda) keng tarqalgan edi. 23-Olimpiadadan (e.a. 688 y.) boshlab uning Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgani fikrimiz dalilidir.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Adabiy yodgorliklar, rasmlar Qadimiy Gretsiyada qo‘l jangini olib borish qoidalari, jangchilarni mashq qildirish uslublari to‘g‘risida yetarlicha ma’lumot beradi. Jang olib borish uchun jangchilarning mushtlari nam teridan tayyorlangan yumshoq tasmalar bilan o‘ralgan. Ular hozirgi zamonaviy bintlar singari qo‘lni jarohatlardan saqlagan. Musht bilan kurashuvchi jangchilar tik turgan holda jang olib borganlar. Ulardan asosan tezkorlik va chaqqonlik talab qilingan.

O‘zbekistonda boks yoshlarning eng sevimli, an’anaviy sport turlaridan biri hisoblanadi. Qadim davrlardan beri mushtlashish janglari O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng ommalashgan bo‘lib, ko‘ngil ochish vositasi hamda mardlik maktabi sanalgan.

O‘zbek boks maktabi davlatimiz hududidan tashqarida mutaxassislarga juda yaxshi tanish. 1926-yilda birinchi sobiq Ittifoq chempionatida O‘zbekiston vakili K.Nikitin kumush medalni qo‘lga kiritgan. Ko‘p karra sobiq Ittifoq chempioni, xizmat ko‘rsatgan sport ustasi Rufat Risqiyevning g‘alabalari ham hammaga ma’lum. U 1974-yilda sobiq Ittifoq bokschilari orasida birinchi bor jahon chempioni, 1976-yilda esa XXI Olimpiya o‘yinlarining kumush medali sohibi bo‘lgan. O‘zbek boks maktabining yana bir vakili – XTSU, ko‘p karra sobiq Ittifoq chempioni, 1974-yilda jahon Kubogi sohibi, “Do‘stlik-84” xalqaro musobaqalarining g‘olibi Vladimir Shindir. Sobiq Ittifoq chempionlari N.Anfimov, N.Xramov, S.Vasilenko, Z.Abdukadirov, R.Trishev, mamlakat Kubogi sohiblari G.Pinchuk va A.Matchonov, sobiq Ittifoq xalqlari Sparta-kiadasi chempioni, 1991- yilda jahon chempionatining kumush medali sohibi, 1990-yilda birinchi “Yaxshi niyat” o‘yinlari g‘olibi, XTSU Artur Grigoryan va ko‘pgina boshqa buyuk bokschilarimiz o‘zbek sporti bayrog‘ini yuqori ko‘targanlar. Ular o‘z ustoz-murabbiylari – sobiq Ittifoq va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy S.A.Jakson, Yu.V.Buxman, B.A.Granatkin, A.D.Din, M.B.Frank, B.S.Gazizov, B.P.Norkin, A.A.Karimov, M.G. Qo‘chqorov, A.A. Razmaxov, V.Shin, A.Karimov, Sh.Xudoyberdiev, A.Kadirov, T.Gulyamovlar bilan birga o‘zbek boksi sharafini dunyoga yoydilar.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda boks yanada ommalashdi. Mamlakatimizning hamma viloyatlarida boks maktablari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Ular orasida Andijon boks maktabi haqiqiy yetakchi, boks markazi hisoblanadi. Bu yerda zamonaviy boksning yirik mutaxassislari M.G. Qo‘ch-qorov va A.A. Razmaxov sermahsul faoliyat yuritib keladilar. Butun jahonga taniqli bo‘lgan bokschilar – XXVI Olimpiya o‘yinlari sovrindori K.To‘laganov; XXVII Olimpiya o‘yinlari chempioni, 1999-yil jahon chempioni, 1998-yil jahon Kubogi sovrindori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi Muhammadqodir Abdullayev; 1999 va 2000-yillar jahon chempioni, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi Ruslan Chagayev; XXVIII Olimpiya o‘yinlari sovrindori, 1999-yil jahon chempioni O‘tkir Haydarov; XXVII Olimpiya o‘yinlari bronza medali sohibi Sergey Mixaylov; 1997 va 1999-yillar Osiyo chempioni, jahon chempionati va Kubogi finali ishtirokchisi, O‘zbe-kistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi To‘lqin Turg‘unovlar mazkur maktabda tarbiyalanib, voyaga yetganlar.

Samarqand, Buxoro, Jizzax, Xorazm boks maktablari ham o‘z o‘rinlariga ega. Toshkent viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bokschilari kuchli sportchilar hisoblanadi.

Mustaqilligimizning birinchi yillarida bokschilarimiz xalqaro musobaqalarda 12 ta medal sohibiga aylandilar. Artur Grigoryan X sobiq Ittifoq xalqlari Spartakiadasida va Ittifoq Kubogida ikkita oltin medalga sazovor bo‘ldi.

1992-yilda bokschilarimiz xalqaro musobaqalarda 15 ta medalni qo‘lga kiritdilar. A.Grigoryan MDH chempionati g‘olibi bo‘ldi va xalqaro turnirlarda yana 7 ta medallar qo’lga kiritildi. Mustaqil O‘zbekiston boks maktabi shu tarzda shakllandi. 1992-yil 9-aprelda boks murabbiylari va mutaxassislari ishtirokidagi konferensiyada O‘zbekiston boks federatsiyasi mustaqil jamoat tashkiloti sifatida ta’sis etildi. Sportchilarimizning Tampera shahrida (Finlyandiya) o‘tkazilgan jahon chempionatida ishtirok etishi 1993-yildagi eng muhim voqea bo‘ldi. Toshkentlik armiyachi Hikmatilla Ahmedov 51 kg gacha bo‘lgan vaznda kumush

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

medalni qo‘lga kiritdi. Bu musobaqada qatnashgan N.Otayev (67 kg, Kogon, Buxoro) va O.Maskayev (91 kgdan yuqori, Toshkent viloyati) 5-o‘rin sohibiga aylandilar.

1994-yilda O‘zbekiston bokschilari xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, 41 ta medal, ulardan 22 ta oltin medalni qo‘lga kiritdilar.

1994-yil – Xirosima shahridagi XII Osiyo o‘yinlari bo‘lib o‘tadigan yil. Bu yerda mustaqil O‘zbekiston vakillari Osiyo hamjamiyati oldida birinchi bor namoyon bo‘ldilar. Sportchilarimizning Osiyo o‘yinlaridagi ishtiroki natijalari juda salmoqli bo‘ldi. Xorazm viloyati Xo‘jayli shahri vakili A.Avazboyev va Toshkent viloyati bokschisi O.Maskayev 91 kg gacha va 91 kg dan yuqori bo‘lgan eng og‘ir vazn toifalarida ishtirok etib, Osiyo o‘yinlari g‘olibi bo‘ldilar. N.Otayev (67 kg, Buxoro), D.Yorbekov (75 kg, Samarqand) bronza medali sovrindorlariga aylandilar. 1994-yil O‘zbekiston bokschilarining xalqaro turnirda g‘olibona ishtiroki bilan boshlandi. Hindiston poytaxti Dehli shahrida o‘tkazilgan musobaqada 7 nafar sportchimiz g‘oliblikni qo‘lga kiritdilar. Bular – D.Xaitov (48 kg, Buxoro), O‘.Siddiqov (54 kg, Qo‘qon), F.Bakirov (63 kg, Toshkent viloyati), N.Otayev (67 kg, Buxoro), I.Berdiyev (71 kg, Toshkent), I.Bukin (75 kg, Toshkent). Ikki nafar sportchimiz: F.Turdiyev (48 kg, Andijon) va G.Ibragimov (81 kg, Toshkent viloyati) Bishkek shahridagi (fevral, 1994 y.) xalqaro turnirda g‘olib bo‘ldilar. X.Ahmedov (51 kg, Toshkent), M.Abdullayev (57 kg, Andijon), O.Maskayev (91 kg dan yuqori, Toshkent viloyati) Turkiyadagi xalqaro turnir g‘olibiga aylandilar.

Xulosa

Shuni ta’kidlash joizki, yetakchi murabbiylar, sportchilar va olimlarimiz tomonidan to’plangan ko‘p yillik tajribalarning keng tarzda ommalashtirilishi respublikamizdagi mutaxassislar malakasining oshishiga, o’quv mashg’ulot jarayoni sifatining takomillashuviga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida kelgusida yoshlarimiz ichidan boks sport turi bo‘yicha yangi chempionlar chiqishini ta’minlashda katta yordam beradi.

Respublikamizda boks sport turi bo’yicha olib borilayotgan samarali ishlar, xalqaro tajribalarga asoslangan ta’lim-tarbiyani amalga oshirish jarayonlari, turli tadbirlar darajasini oshirish natijasida jismoniy tarbiya institutining boks ixtisosligi yo‘nalishi bo‘yicha o’qishga kirayotgan abituriyentlarning (I razryaddan O’zbekiston sport ustasi darajasigacha) sport tayyorgarligi tubdan yaxshilanishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi Farmoni. T., 2002 yil 24-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda boksni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 279 sonli Qarori, 01.06.1999 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (Yangi tahriri) // Xalq so‘zi gazetasi, 28 iyun, 2000 y.
4. Anasimov A.V. Dorogo k ringu. T., «Fan va texnologiyalar markazi» nashryoti, 2005 y. S. 324
5. Achilov A.M, Xalmuxamedov R.D., Shin V.N, Tajibaev S.S., Rajabov G‘.Q. Yosh bokschilarni tayyorlash asoslari. T., Mumtoz so‘z, 2012, 228 bet